

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 5 сон



86	Ingliz va o'zbek tillaridagi antisemik munosabatda bo'lgan tibbiy frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari	
	Haydarova N. A	424
87	Таржима жараёнида дискурс таҳлилнинг роли	
	Қосимова Н.Ф.	428
88	Ўқув машғулотида жараёнида мақол, матал ва идеоматик бирикмаларни ўзбек ва немис тилларида қиёслаб ўрганиш	
	Бабаев М.Т.	431
89	Tarjimada lingvokulturemalarning berilishi va ularning struktural komponentlari (Nemis va o'zbek tillari misolida)	
	Irgasheva F.B.	435
90	Xorijiy tillar ta'limida talabalarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati	
	Olimova D. Z.	439
91	Мақтаб таълимида паст ўзлаштириш сабаблари ва тўлиқ ўзлаштириш турлари	
	Джалолов Ф. Ф.	443

13.00.00

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

92	Бўлажак офицерларни касбий фаолиятга ахлоқий-руҳий тайёрлашда буюк аждодларимиз ҳарбий санъатининг аҳамияти	
	Бурханов Т.М.	448
93	Абу Наср Ал-Фаробий, Абу Али Ибн-Сино, Сафиуддин Ал-Урмавий ва Абдурахмон Жомийларнинг илмий – назарий қарашлари.	
	Маҳамматов А, Абдурахимов А, Холбеков .М.	454
94	Moliya-iqtisod yo'nalishi talabalarining gapirish va o'qish ko'nikmalari takomillashtirishda ta'lim innovatsiyalarining roli	
	Yo'ldoshova. U.B.	461
95	Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarining muhandislikga yo'naltirilgan kasbiy-muhandislik kompetentligini shallantirish	
	Ҳамитов Ф.М.	466
96	Ta'lim jarayonida interaktiv usuldan foydalanish va phet elektron resursi haqida	
	Karimova S.T.	471
97	Fizika o'qitishda venn diagrammasidan foydalanish va uning samaradorligini baholash.	
	Mislidinov B.Z, Muminov A.L.	476
98	The role of ict in teaching english	
	Nurdinova F. K.	481



**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ANTISEMIK MUNOSABATDA BO'LGAN TIBBIY
FRAZEOLIGIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi
Buxoro davlat universiteti
Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida o'qituvchisi
Email: nodirabegimhaydarova15@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi antisemik munosabatda bo'lgan frazeologik birliklar tibbiyot nuqtai nazaridan o'rganilgan va misollar orqali tahlil qilingan. Shuningdek, ularning lingvomadaniy xususiyatlari haqida ham so'z borgan.

Tayanch so'zlar: lingvokulturologiya, antisemiya, fiziologiya, tibbiy frazeologik birliklar, milliy-madaniy konnotatsiya

**ЛИНГУКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МЕДИЦИНСКИХ
ФРАЗЕОЛОГИЙ В АНТИСЕМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ АНГЛИЙСКОГО И
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**

Хайдарова Нодирабегим Ахтамжоновна
Бухарский государственный университет
Преподаватель кафедры переводоведения и лингводидактики
Email: nodirabegimhaydarova15@gmail.com

Аннотация. В статье сделана попытка исследовать фразеологизмы, обозначающие антисемитские особенности с медицинской точки зрения. Кроме того, были уточнены лингвокультурные особенности вышеупомянутых единиц.

Ключевые слова: лингвокультурология, антисемия, физиология, медицинские фразеологизмы, национально-культурная коннотация.

**LINGUOCULTUROLOGICAL PROPERTIES OF MEDICAL PHRASEOLOGIES IN
ANTISEMIC RELATIONS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

Khaydarova Nodirabegim Akhtamjonovna
Bukhara State University
Lecturer at the Department of Translation Studies and Language Education
Email: nodirabegimhaydarova15@gmail.com

Abstract: In the article, we tried to investigate phraseological units denoting anti-semitic peculiarities from the medical point of view. Moreover, linguocultural features of the above-mentioned units were clarified.

Key words: linguoculturology, anti-semitism, physiology, medical phraseological units, national-cultural connotation.

Bugungi kunda tilga madaniy, milliy va sotsiolingvistik nuqtai nazaridan yondashish keng ko'lamli ahamiyatga ega bo'lib, bu esa o'z navbatida o'sha tilning jahon tilshunosligi arenasidagi mavqeini belgilaydi. Lingvokulturologiyaning tilshunoslik ilmidagi mustaqil yo'nalish sifatida tasdiq topishi, til va ijtimoiy muhit va milliy mental xususiyatlarning bir-



biriga chambarchas bog'liq ekanligi niqotai nazari atrofida paydo bo'ladigan muammolarni yagona kompleksga bo'linishi mumkinligi sababli soha ancha dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi. XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir" .

Lingvokultural tadqiqotlar tarixi Vilgelm fon Gumboldtning shu sohada olib borgan g'oyalaridan boshlanadi, u tilning madaniy qatlami va qurilishi bir-biri bilan o'zaro hamohang bog'liq deb hisoblagan. Ushbu sohada ko'plab tilshunos olimlar, shu jumladan, A. Virzbikaya, R.M. Kinging, V. Maslova, V. Karasish, S. Vorchachev, V. Teliya, V. Shaklein, F. Vorobev, J. Stepanov, E. Levchenko, V. Kononenko, V. Jayvoronok kabilar ahamiyatga molik tadqiqotlar olib borganlar.

O'zbek tilshunosligida ham lingvokulturologiya sohasida bir qator izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, A. Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." N. Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, D. Xudoyberganovanning "Matnning antropotsentrik tadqiqi" kabi maqolalari va monografiyalarini shu sohada olib borilayotgan izlanishlarning dalili sifatida belgilash mumkin. Lingvomadaniyatshunoslikning mohiyat va mazmuni, shunigdek soha obyekti ham yuqorida nomi keltirilgan ishlarda o'z tasdig'ini topgan.

Frazeologizmlarga lingvomadaniyatshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning ajralmas bir qismi sifatida qaraladi. Zero, frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxiteplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan-avlodga uzatiladi. Frazeologizmlar asosan so'zlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg'un so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham, boshqa xildagi tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari ma'lum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas. Boshqa nuqtai nazardan, frazeologik lisoniy birliklarning kompozitsion tizimida milliy-madaniy ma'lumotlarning tashuvchilari va manbalari bo'lgan xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'rsatgichlar to'plami mavjud. V.A.Maslova iboralarning milliy va madaniy xususiyatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Ular har bir milliy tilning ruhidir. Frazeologik birliklar atrofimizdagi dunyoni shunchaki tasvirlamaydi - ular uni izohlash, baholash, subektivligimizni ko'rsatish uchun unga munosabatni ham bildiradi.

Har bir lingvomadaniy tadqiqotda biz milliy-madaniy xususiyatlarga ega frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin. V.N. Teliya maktabi Rossiyada va xorijda frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlil qilish bilan tanilgan. V.N.Teliya va uning shogirdlari



lisoniy mohiyatlarni jonli til egasining refleksi nuqtayi nazaridan tadqiq qilishadi. Masalan, o'zbek tilining "musichaday beozor" iborasini boshqa tillarga qaraganda topish qiyin. Biz o'zbek millati uchun xos bo'lgan "beozor" sifatining yorqin aksini bu misolda ko'rishimiz mumkin. Biroq, ingliz tilida esa biz "kaptar"ni beozor prototip sifatida ko'rishimiz mumkin, masalan "as harmless as a dove".

Qarama-qarshilik borliqdagi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Olamni anglashda qarama-qarshilik kategoriyasining o'рни beqiyos. Falsafiy nuqtai nazardan har qanday hodisaning o'rganilishi, ertami-kechmi, ularning qaramaqarshi tomoniga murojaat qilinishiga olib keladi. Tilshunoslikda antisemiya munosabati birinchi bo'lib o'zbek tilshunosligida Dildora Abdullaeva tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, mazkur masalaga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida so'zlarning antisemik munosabatlari tadqiq etilgan. Antisemiya hodisasini frazeologik birliklarda ham o'rganish maqsadga muvofiqdir. Zero, frazeologik birliklarning frazemalar bilan va leksemalar bilan qarama-qarshi ma'no anglatishi tabiiy bo'lgan holda frazemaning aniq bir turkumga xos ekanligini aniqlash mushkul.

Frazeologik birliklar hayotimizning ko'plab sohalarini qamrab olgan. Tibbiyot tiliga oid lisoniy materiallarni ko'zdan kechirganda biz barqaror kombinatsiyalarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Kasbiy-professional tibbiy frazeologik birliklarni bilish tibbiyot xodimining kasbiy fazilatlarini shakllantirishda, kasb egasining madaniy nutqini rivojlantirishda hamda uning so'z boyligini oshirishda muhim xususiyatga ega. Qadim zamonlardan beri tibbiyotda turli xil alomatlar, sindromlar, kasalliklar va sog'liqni saqlash me'yorlarini belgilash uchun amaliyotchilar ko'pincha qat'iy professional atamalardan emas, balki tibbiy evfemizmlar va frazeologik birliklardan samarali foydalanishgan va hali hanuz, bu til birliklariga bo'lgan ehtiyoj dolzarb. Shifokorlar kasallikning borishini tavsiflashda va tashxis qo'yishda o'zining professional malakasidan kelib chiqib, soha lingvistikasidan foydalansa, bu jarayonni bemor oldida ifodalashga ko'chma ma'nodagi til birliklariga yoki bu birliklarning ajralmas bir qismi hisoblangan frazeologik birliklarga ehtiyoj sezishi mumkin.

Tibbiyotda qadim zamonlardan to hozirgi kungacha aniq fanlarga xos bo'lgan qat'iy atamalar bor desak xatoga yo'l qo'yishimiz mumkin. Chunki ba'zi bir tibbiy jarayonlar yoki xastaliklarni ifodalashda frazeologizmlar, mifologik va folklor xususiyatlarga ega til birliklaridan qo'llanilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ma'lumki, hissiy rangdagi ma'lumotlar yaxshiroq va to'liqroq o'zlashtiriladi. Bemorlar bilan suhbatda oddiy tilda gapirish tavsiya etiladi: muloyimlik bilan, hamda tushunarsiz so'zlar bilan to'ldirilgan ilmiy iboralardan qochish - gipertoniya, anemiya, fibroz kabilar shular jumlasidandir.

Maqolaning obyekti sifatida inson fiziologiyasini aks ettiruvchi antisemik munosabatda bo'lgan tibbiy frazeologik birliklarning ham ingliz, ham o'zbek tillaridagi lingvomadaniy xususiyatlari bilan yoritishni istadik. "O'lim" va "tug'ilish", "yoshlik" va "qarilik", "kasallik" va "sog'lik" hodisalari tibbiy nuqtai nazardan inson bilan bog'liq fiziologik jarayon deb hisoblanishini inobatga olgan holda, uni aks ettiruvchi frazeologik birliklar shifokor nutqida bu jarayonni bemorning yaqinlariga yetkazishda muloqot madaniyatining ajralmas bir qismi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek hamda ingliz tillarida "o'lmoq" va "tug'ilmoq" semalarini beradigan so'zlar o'rniga ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'plab frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin. Shuningdek, ular milliy-madaniy xususiyatlarni o'zida mujassam qilib, tilning lingvomadaniy qatlamini boyitish uchun xizmat qiladi. "O'lmoq" so'zi o'rniga o'zbek tilida quyidagicha



frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin: *Alloh o'z panohiga olmoq, narigi dunyoga rixlat qilmoq, bandalikni bajo keltirmoq, dunyodan ko'z yummoq, ajali yetmoq, jon bermoq, joni chiqmoq, yer tishlamoq, umr o'tkazmoq, umr ko'rmoq, olamdan o'tmoq, oyoq uzatmoq, tuproqqa topshirmoq* kabilar shular jumlasidandir. Yuqorida nomi keltirilgan frazeologizmlardan *Alloh o'z panohiga olmoq, narigi dunyoga rixlat qilmoq, bandalikni bajo keltirmoq* kabilar lingvomadaniy xususiyatlarga ega bo'lib ular xalqimizning madaniyati, ma'naviyati, dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Ingliz tilida esa *to pass away, breathe one's last, gone to a better place, go to the big place in the sky, join the great majority, kick the bucket, the rope round his neck, to die with one's boots on, to be gathered to one's fathers, to go the way of all flesh* frazeologik birliklari "o'lmoq" semasini beradigan idiomalar sifatida qo'llaniladi. Bulardan *to die with one's boots on, to be gathered to one's fathers* kabi idiomalar lingvokulturologik mazmunga ega bo'lib, ingliz millati va madaniyatini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. "O'lmoq" semasiga antisemik munosabatda bo'lgan "tug'ilmoq" yoki "tug'moq" so'zlari o'rnida qo'llaniladigan *dunyoga kelmoq, tavallud topmoq, ko'z yorimoq, kindik qoni to'kilmoq, dunyoga keltirmoq*, va shunga o'xshash frazeologizmlarning ekvivalentlarini ingliz tilida quyidagi ko'rinishda uchratishimiz mumkin: *give birth to, bring into being, bring to life, give life to, call into existence, and endow with life*. Yuqorida nomi zikr qilingan frazeologizmlardan *kindik qoni to'kilmoq, ko'z yorimoq* va ingliz tilidagi *call into existence, and endow with life* frazeologizmlari milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan holda lingvokulturologik jihatdan ahamiyatga ega.

Sog'liq har bir xalqning eng qadimgi qadriyatlaridan biri bo'lib, insoniyat tabiiy mavjudot sifatida doimo sog' yurishga intilgan. Uni asrashga harakat qilgan. Qadim zamonlardan beri tabiblik kasbining mavjudligi ushbu fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu holatga zid hisoblangan kasallikka ham turli munosabatlar bildirilgan. Masalan, kasallik qilingan gunohlar, kimningdir nazari, yomon odamlarning turli sehlari, noto'g'ri ovqatlanish, makon va zamon (fasllar) bilan sharhlangan. Ingliz va o'zbek xalqlarining bu ikki tushunchaga bo'lgan qarashlari, albatta, frzemalarda ham o'z aksini topgan. Kasallik so'ziga antisemik munosabatdagi frazemalar: *tutday g'arq pishmoq, barq urmoq, barq urib ko'karmoq, bahri-dili ochilmoq, omon-eson bo'lmoq, yostiqdian bosh ko'tarmoq*. Ingliz tilida esa *Clean bill of health, Fit as a fiddle, Be the picture of (good) health, In the pink of health, As right as rain* frazeologizmlari "sog'lik" so'zi bilan semaviy qatorga egadirlar. *Tutday to'kilmoq, boshi yostiqa etganda, mazasi qochmoq, ko'z oldi qorong'ilashmoq, badanidan o'tib ketmoq* hamda ingliz tilidagi *Under the weather, Look/feel like death warmed up, Frog in one's throat, Go under the knife, On one's last legs* kabi frazemalar sog'lik leksemi bilan antisemiya munosabatini hosil qiladi.

Shunday qilib, frazeologik birliklarning tadqiqi madaniy kompetentsiyani shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Frazeologik birliklarni lingvokultural jihatdan o'rganish tilning milliy lug'at qatlamini boyitishga xizmat qiladi. Tibbiy frazeologik birliklar shifokorlarning bemor bilan muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rib o'tilgan antisemik munosabatda bo'lgan frazeologik birliklar tibbiyot nuqtai nazaridan o'rganilib, ularning shifokor deontologiyasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskii, pragmaticheskii i lingvokulturologicheskii aspekti. - M.: Shkola "Yaziki russkoy kulturi", 1196- bb.222.
2. Mamontov A.S. Language and culture: a comparative aspect of the study. M.,2000.



3. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.35-36.
4. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b.

ТАРЖИМА ЖАРАЁНИДА ДИСКУРС ТАҲЛИЛНИНГ РОЛИ

Қосимова Нафиса Фарҳодовна

Бухоро давлат университети

Таржимашунослик ва лингводидактика кафедраси доценти, PhD;

email: knafisa75@mail.ru

Аннотация. Мазкур мақолада таржима қилиш жараёнида дискурс таҳлилнинг роли, унинг баҳоловчи характери, аслият ва таржима матнлариаро интертекстуалликни таъминлаш потенциали ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: таржима, дискурс, дискурс таҳлил, таржимон тафаккури, контекст, интертекстуаллик, нутқ акти.

РОЛЬ ДИСКУРС АНАЛИЗА В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

Касимова Нафиса Фарҳадовна

Бухарский государственный университет

Доцент кафедры переводоведения и лингводидактики, PhD

email: knafisa75@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматривается роль дискурсивного анализа в процессе перевода, его оценочный характер, функциональный потенциал при обеспечении интертекстуальности между текстами оригинала и перевода.

Ключевые слова: перевод, дискурс, дискурсивный анализ, мышление переводчика, контекст, интертекстуальность, речевой акт.

THE ROLE OF THE DISCOURSE ANALYSIS

Kasimova Nafisa

The Department of Translation Studies and Language Education, Associate Professor,

PhD at Bukhara State University

email: knafisa75@mail.ru

Abstract. This article examines the role of discourse analysis in the translation process, its evaluative nature, and functional potential in ensuring intertextuality between the original and target texts.

Key words: translation, discourse, discourse analysis, translator's thinking, context, intertextuality, speech act.

Таржима фаолиятига адекват ёндашув нафақат аслият ва таржима матнлариаро мазмунни тиклаш муҳимлигини, балки бу матнлар қачон, қандай вазиятда, ким томонидан, қайси шароитда ишлатилишини ўз ичига олади. Ўзининг муайян "тарихи"га,